

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVASIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.22:336.14-047.72(575.1)

BABAYEV SHAVKAT BAYRAMOVICH

**BYUDJET TIZIMIGA JISMONIY SHAXSLARDAN
UNDIRILADIGAN SOLIQ TUSHUMLARINI PROGNOZ QILISHNING
METODOLOGIK MASALALARI**

08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTASIYA

**Ilmiy maslahatchi: Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,
*iqtisodiyot fanlari doktori, professor***

Toshkent shahri-2025 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. BYUDJET TIZIMIGA JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQLARNI PROGNOZ QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	16
1.1. Byudjet tizimiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilishning ilmiy-nazariy asoslari.....	16
1.2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilishning huquqiy asoslari hamda tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	36
1.3. Byudjet tizimiga soliq tushumlarini shakllantirishning zamonaviy mexanizmi hamda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	52
1-bob bo'yicha xulosa.....	62
2-BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQLARNI AMALDAGI HOLATI.....	65
2.1. § Soliqni prognoz qilish ko'rsatkichlari va uni belgilovchi omillar tahlili.....	65
2.2. § Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni baholash usullari hamda ularning amaldagi holati.....	88
2.3. § Byudjet tizimiga jismoniy shaxslardan olinadigan soliq tushumlarini prognoz qilishni baholash modellari tahlili.....	107
2-bob bo'yicha xulosa.....	136
3-BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQLARNI PROGNOZ QILISH MEXANIZMLARINI OB'EKTIVLIGINI TA'MINLASH.....	138
3.1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilish mexanizmlarining ishlashini baholash ko'rsatkichlari tizimi.....	138
3.2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni oshirishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili hamda ularni modellashtirish.....	156
3.3. Hududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan soliqlarni byudjetning daromadligiga ta'sirini tahlil etish.....	185
3-bob bo'yicha xulosa.....	190
4-BOB BYUDJET TIZIMIGA JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQ TUSHUMLARINI PROGNOZ QILISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	193
4.1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilishda tartibga solish orqali soliq vositalaridan foydalanishni analitik imkoniyatlari.....	193
4.2. Hududlarda bozor iqtisodiyotiga asosan soliq bazasini shakllantirish.....	203
4.3. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliqlarni prognoz qilishning metodologiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etish holati.....	222
4-bob bo'yicha xulosa.....	240
XULOSA.....	241
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	244
ILOVALAR.....	260

KIRISH

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy xarajatlarni samarali rejalashtirish, fiskal siyosatni maqbullashtirish va iqtisodiy faollikka moslashuvchan byudjetni shakllantirish imkonini yaratishda byudjet tizimiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini prognoz qilishning ahamiyati ortib bormoqda. Mazkur jarayonda mehnat bozori dinamikasi, aholi daromadlari tarkibi, inflyatsiya darajasi, raqamli ish haqi platformalarining rivoji va soliq intizomini hisobga olgan holda matematik-statistik modellar, mashinali ta'lim usullari va makroiqtisodiy prognozlash algoritmlaridan foydalanish orqali soliq tushumlarining real prognozi tuzilib, byudjet xarajatlarini muvofiqlashtirish va fiskal risklarni boshqarish imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, "grant hisobidan moliyalashtiriladigan xarajatlarni hisobga olmagan holda xarajatlarning umumiy miqdori 2024/25-yilda 35,1 %ni ko'rsatmoqda. Soliq tushumlari doirasida 2024/25-yilda 82,304 mln AQSH dollarini (bojxona va aksiz solig'i 24 %, QQS 24 %, shaxsiy daromad solig'i 24 %, korporativ daromad solig'i 14 %, boshqa soliqlar 4 % hamda mulk solig'i 0,4 %) tashkil etmoqda". Ushbu ko'rsatkichlardan kelib chiqib, "Jahon mamalakatlari, ular tomonidan olib borilayotgan soliq siyosatida, soliq tushumlarini oshirish uchun har tomonlama baholash zarurligi yuzasidan soliqlarni to'lash reytingini (soliq to'lash rejimlarining qulayligi)" inobatga olishni taklif etayotganligi dolzarb hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognozlash jarayonida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan indikativ yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli davlat byudjeti daromadlari hajmini oldindan baholashning asosi sifatida makroprudensial indikatorlardan keng foydalaniladi. O'rta muddatli fiskal siyosatni shakllantirish hamda reprezentativ soliq tizimini joriy etish sharoitida jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognozlashda kombinatsiyalashgan metodologik yondashuvlar ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonda alohida soliq turlari kesimida imitasion, deterministik va adaptiv

modellash tirish usullaridan foydalanish soliqqa tortish bazasini chuqur tahlil qilish, soliq tushumlarining barqarorligini oshirish hamda byudjet daromadlarining o'sish salohiyatini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, soliq prognozlarini takomillashtirishda xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan ilg'or uslubiyotlarni mahalliy sharoitga moslashtirish ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida o'rta muddatli davlat byudjetini rejalashtirish tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, davlat byudjeti daromadlarini prognozlashda yangicha konseptual yondashuvlarni shakllantirishni talab qilmoqda. Bunda nafaqat fiskal barqarorlikni ta'minlash, balki o'rta muddatli istiqbolda davlat moliyaviy siyosatining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan modellarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu holat jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq tushumlari bo'yicha ham prognoz ko'rsatkichlarini o'rta muddatli davrga ishlab chiqishda yangi mazmundagi ilmiy tadqiqot ishlarini taqozo etmoqda. "Yashirin iqtisodiyot"¹ni qisqartirish orqali soliq bazasini qo'shimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish, hududlarning fiskal salohiyatini puxta o'rganish natijasida soliqqa tortish manbalarini to'liq aniqlash va qamrab olish, daromadlar prognozini sifatli shakllantirish, bundan tashqari, xarajatlar ulushi oshib borayotgan bir sharoitda, mahalliy byudjetlar daromadlarini prognoz qilishning yagona uslubi mavjud emasligi, ularning asosiy daromad manbai bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash zarurligi natijasida ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-sentyabrdagi PF–5837-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son "2022–2026-yillarga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2023 yil 11 sentyabrdagi PF 158-sonli "O'zbekiston — 2030" strategiyasi.